



НАУЧНЫЙ  
ИМПУЛЬС  
ЦЕНТР НАУЧНОЙ  
ПОДДЕРЖКИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

# НАУЧНЫЙ ФОКУС



Последние  
изменения

Последние  
информация

Последние  
шаги

И НОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ



*Международный современный научно-практический журнал*

**Научный Фокус**

№ 18 (100)  
Октября 2024 г.

**Часть 1**

Издаётся с май 2023 года

Москва 2024

СОДЕРЖАНИЕ:

<b>ODAMLARNING TABIIY TASVIRI (NODIR NORMATOV IJODI MISOLIDA)</b> Rushana Zaripova Alisher Navoiy nomidagi	<b>12</b>
<b>PORTLASH VA PORTLASH-YONISH XAVFI BOR OBYEKTLARDA OLOVLI ISHLARNI XAVFSIZ OLIB BORILISHINI TASHKIL QILISH</b> Bozorov G'iyosjon Abdug'an o'g'li	<b>15</b>
<b>MTT DA BOLALARNING TABIAT VA EKOLOGIYA HAQIDA TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</b> Boltayeva Manzura Boyturayevna	<b>19</b>
<b>ELEKTRON PEDAGOGIKA TA'LIMGA ZAMONAVIY YONDASHUV TENDENSIYASI SIFATIDA</b> Abdunazarova Nazira Botir qizi S.M.Yoldosheva	<b>24</b>
<b>НАУЧНАЯ СТАТЬЯ О ПЕРЕРАБОТКЕ И АНАЛИЗЕ ДАННЫХ</b> Алламуратова Венера Жумамуратовна	<b>28</b>
<b>SIYOSIY INTEGRATSİYALASHUV JARAYONIDA MINTAQAVIY TASHKİOTLARNING SHAKLLANISHI VA VUJUDGA KELISHINING SIYOSIY, HUQUQIY ASOSLARI</b> Sultonova Maftunabonu Doniyorovna	<b>31</b>
<b>PROSPECTS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REGION</b> Yusubov In'omjon Ikram ugli	<b>34</b>
<b>BADIIY DAXO EGASI - ABDULLA QODIRIY</b> Rajabova Elmira Bekpo'lat qizi Zaynutdinova Sarafrozbonu Karimovna	<b>41</b>
<b>JISMONIY VA YURUDIK SHAXSLARNING YER UCHASTKALARINI OLIB QO'YISH VA KOMPENSATSIYA BERISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH</b> Hamidov Fayzullo Ramazonovich Akramova Nargiza Anvar qizi	<b>47</b>
<b>SUG'ORILADIGAN TUPROQLARI UNUMDORLIGIGA SHO'RLANISHNING TA'SIRI (VOBKENT TUMANI MISOLIDA)</b> Karimov Erkin Qodirovich Akramova Nargiza Anvar qizi	<b>53</b>
<b>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AQLIY HAMDA AXLOQIY TARBIYANI UYG'UN HOLDA SHAKLLANTIRISH METODLARI</b> Matqurbanova Sevara Ikromjon qizi	<b>58</b>
<b>THE IMPORTANCE OF WARM-UP ACTIVITIES IN LANGUAGE LEARNING</b> Ilxomova Shirin Olimjon qizi	<b>62</b>
<b>ABDULLA QODIRIY - MA'NAVIYAT SARCHASHMASI</b> Rajabova Elmira Bekpo'lat qizi, Zaynutdinova Sarafrozbonu Karimovna	<b>66</b>

<b>PSIXOLOGIYADA SHAXSNING INDIVIDUAL FARQLARI HAQIDA G'ARB VA SHARQ OLIMLARINING QARASHLARI O'RTASIDAGI TAFOVUTLARI</b> Yo'doshqulov Asadbek Baxrom o'g'li	<b>240</b>
<b>O'ZBEK TILIDA LEKSEMANING IFODA VA MAZMUN PLANI</b> Abdumurodova Munira Abdusaid qizi	<b>245</b>
<b>A'ZAM ISMOIL BILAN IJODIY UCHRAШUV: ЁШЛАР УЧУН ILХOM VA MA'РИФАТ МАНБАИ</b> Курбонова Матлуба Давроновна Мирзааҳмедова Ҳаётхон Эминжоновна	<b>248</b>
<b>XALQARO INSON HUQUQLARI VA O'ZBEKİSTON</b> Zebo Komilova G'ayrat qizi	<b>250</b>
<b>TILSHUNOSLIKDA TERMINLARNI O'RGANISHNING ASOSIY TAMOYILLARI VA NAZARIY ASOSLARI</b> Islomova Dilnoza Quvondiq qizi	<b>254</b>
<b>JAMOAT TARTINI SAQLASH BO'LIMALARINING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSALARI</b> Shukurov Bobur O'tkirovich	<b>260</b>
<b>DEVELOPMENT OF A ROBOTIC ARM USING THE ARDUINO PLATFORM</b> Sherali Nurali Abdukarimov Khasan Abdujabbor Muhammadjonov Mahmud Akbar Mahmudov Rasul Ravshan Rixsiboyev Abrorbek Ilhomjon Ismoiljonov	<b>266</b>
<b>FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI</b> Murodova Munisa Mukammal qizi	<b>271</b>
<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY FAOLIYATNING AHAMIYATI</b> O'razaliyeva Sojida Tojiboy qizi Ziyodullayeva Sabrina Sunnatullo qizi Roziqova Gulsummo Zafar qizi Safarova Marjona Abduraxim qizi	<b>279</b>
<b>OILADA INKLYUZIV TA'LIM-TARBIYANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI</b> Temurova Gulchehra Xudaykulovna Mullayeva Mohinur Marat qizi	<b>282</b>
<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY ASARLAR BILAN TANISHISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH</b> Muhiddinova Dilfuza Sherdor qiz	<b>292</b>
<b>BUXOROLIK JADILAR TOMONIDAN GERMANIYAGA YUBORILGAN YOSH BUXOROLIK OMONULLA NUSRATILLOYEVNING AYANCHLI QISMATI</b> Sobirov Ulug'bek G'ofurovich	<b>296</b>
<b>MAMLAKATIMIZ TUPROQ IQLIM SHAROITIGA MOS TRITIKALE NAVLARINI TANLASH</b>	<b>300</b>

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY ASARLAR BILAN TANISHISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi  
Muhiddinova Dilfuza Sherdor qiz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish tashkiliy-metodik, ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega jarayon ekanligi hamda ushbu jarayon o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bolalarning dunyoqarashini asarlarda ilgari surilgan g'oyalalar orqali rivojlantirishni ko'zda tutishi, maktabgacha yoshdagি bolalarda badiiy asarlar bilan tanishishga qiziqishni shakllantirish muhim pedagogik muammo ekanligi xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** bolalar adabiyoti, ertaklar, adabiy asarni idrok etish, an'anaviy resurslar, hikoyalari, mashg'ulotlararo integratsiya

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, bolaning sog'lom va mustaqil fikrini shakllantirish, qobiliyatini ro'yobga chiqarish hamda bilim olishga intilishini rivojlantirish kabi maqsadlar yo'lida ish olib boradi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalda joriy etish, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularni o'quv-uslubiy, didaktik materiallar bilan ta'minlash hamda pedagog xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha muhim maqsad va vazifalar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha yoshdagи bolalarni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazishda tarbiyachining shaxsiy namunasi muhim o'rinn tutadi. Chunki hayot ostonasida turgan jippi bolakaylor har sohada tarbiyachiga taqlid qiladilar, tarbiyachi ta'siri ostida dunyoni asta-sekin teran nigohlari bilan anglay boshlaydilar. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagи bolalarni badiiy adabiyotlar bilan yaqindan tanishtirish, mavjud adabiyot namunalarda aks etgan ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni turli xil zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida bola ongiga singdirish, bolalarda og'zaki nutq va badiiy tasavvurlarni tizimli hamda matab ta'limi uchun yetarli darajada shakllantirish bo'yicha yangicha ilmiy yondashuvlarni olib borishga zarurat kuchaymoqda. Ushbu zamonaviy yondashuvlar bilan qatorda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish uchun muassasada faoliyat ko'rsatuvchi xodimlarning kasbiy bilim va tayyorgarligini oshirish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotilarini yetuk kadrlar bilan ta'minlash, tarbiyalanuvchilarning aqliy, ruhiy va jismoniy kamol topishiga ko'maklashish vazifalari eng dolzarb vazifalar sifatida namoyon bo'lmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya bu har bir bolaga individual yondashishni, uni shaxs sifatida hurmat qilishni, ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalashni, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lim berishni nazarda tutadi. Mazkur vazifalar badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayoniga hamohangdir. Bu jarayonga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishda ham pedagog, ham ota-onalar, ham hamkor tashkilotlarning o'zaro hamkorligi talab etiladi. MTT lari ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan yangiliklar, zamonaviy metodlar bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o'zini, o'zligini taniydi va kelajakda millatning, yurting faxriga aylanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-metodik xususiyatga ega jarayondir. Bu jarayon o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bolalar dunyoqarashini asarlarda ilgari surilgan g'oyalar orqali rivojlantirishni ko'zda tutadi. Maktabgacha ta'lim davrida bolalar qanchalik badiiy adabiyot bilan muttasil va izchil tanishsalar, ular shunchalik keyingi yosh davrlarida ulkan adabiy merosni tushunish va uning qimmatini anglashga tayyor bo'ladi. Ma'lumki, bolalar adabiyoti hikoyalar, ertaklar ko'rinishida bola hayotining ilk davrlaridan hamroh bo'ladi. Agar tashkilotda o'quv-tarbiyaviy jarayon mos adabiyotlardan foydalangan holda tashkil etilsa, bolalarda kitobga qiziqish, uni asrashga intilish erta paydo bo'ladi. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayoni maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiluvchi barcha turdag'i mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Amaliyotni kuzatish asosida biz shuni guvohi bo'ldikki, pedagoglar aynan nutq o'stirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlaridagina badiiy asar bilan alohida tanishtirish ishlarini olib borishadi. Agarda boshqa turdag'i mashg'ulotlarda, masalan, yasash-qurish mashg'ulotida mакети, nuxsasi yasalayotgan hayvonni qaysi ertakda uchrashi va u nimalar qilganini suhbat davosida ayttirishga e'tibor qaratilsa, mashg'ulotlararo integratsiya va jarayonning hayot bilan bog'liqligi ta'minlanadi. Bolalar bu davrda rasmlı matnlarga duch keladilar. Dastlab, bola sahifalarni varaqlashga, kattalarning u uchun asarni o'qib berishiga, o'qilgan matnni tinglashga, rasmlarni ko'rib chiqishga qiziqadi. Masalan, bolada rasmga qiziqishning paydo bo'lishi bilan, o'z-o'zidan matnga qiziqish paydo bo'ladi. Natijada badiiy asarni o'zlashtirishga motivatsiya uyg'onadi. Keyinchalik asardagi qahramonlarning xatti-harakatlariga o'ziga tortadi. Bolalar tomonidan ijobjiy harakatlarni sidqidildan ijro etishga intilish kuchayadi. Chunki bolalar tomonidan adabiy asarni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu qahramonlarga va ularning harakatlari oqibatlariga hamdard bo'lishdir. Ma'lumki, idrok juda faol bo'lishni taqozo etadigan jarayondir. Ta'limda idrok etishga undovchi qo'zg'atuvchi vositalarga ehtiyoj tug'iladi. Faol xarakterdagi bolalar asarni eshitgan va ko'rgan zahoti, o'zini qahramonning o'rniqa qo'yadi, aqliy harakat qiladi, qahramonning dushmanlari bilan lutfan kurashadi. Tarbiyachi pedagogning asosiy vazifalaridan biri bu passiv bolalarni bu jarayonga tortishdir. Buning uchun bolalarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi, ularning materialni o'zlashtirish uslublari kuzatiladi. ya'ni, bola axborotni qanday

o'zlashtirishni xush ko'rishi aniqlanadi. Vizual, audial va kinestet bolalar tipologiyasi bo'yicha tarbiyachida ma'lumotlar bo'lishi talab etiladi. Shu tipologiya bo'yicha tarbiyachi asarni tushuntirishda tegishli o'quv vositalarini tayyorlashi ko'zda tutiladi. Chunki bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning vazifalari asarlarni idrok etishga va tushunishga bo'lgan qiziqishini payqash va yo'naltirish hisoblanadi.

O'yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o'yin jarayonida o'rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o'zlashtiradi. Elektron badiiy adabiyotlarda mazkur faoliyatlariga yo'naltiruvchi topshiriqlar, ijodiy va harakatli o'yinlar o'z aksini topgan bo'lib, tarbiyachilar bolalarning yoshiga mos, bir nechta funksiyalar (kommunikatsiya, davolovchilik, kommunikatsiya, millatlararo muloqot, ijtimoiylashuv)ni bajaruvchi o'yinlar aks ettirilgan bo'lishi zarur. Badiiy adabiyot bilan tanishtirishda didaktik ta'minotning ham ahamiyati kattadir. Chunki pedagogning manbalar bilan ishlashi va bu manbalarning bolalar yosh xususiyatlariga mos bo'lishi ta'limdan kutilgan natijalarga erta va samarali erishish imkoniyatini kengaytiradi. Mazkur tamoyillarning amaliyatga keng joriy etilishida adabiy resurslarning ta'minlanganligiga bog'liqdir. Resurslar esa, modelning muhim komponenti sifatida tavsiflanadi. MTTda adabiy resurslarning quyidagi shakllari qo'llanilmoqda. Bular: 1) an'anaviy resursrlar (matnli ko'rinishdagi adabiyotlar, rasmi tarqatmalar, darsliklar); 2) zamonaviy yangi avlod elektron o'quv adabiyotlari (multimediali (ko'p axborotli), animatsion elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, elektron dasturlar, ma'lumotlar banki va boshqalar). Elektron badiiy adabiyotlar bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga, tanishtiruv jarayonini qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, animatsiyali, ovozli, tasvirli va rasmi ko'rinishga ega bo'lganligi bilan ana'anaviy manbalardan farq qiladi. Elektron badiiy adabiyotlarni bolalar ongiga yetkazishda tasvir ya'ni illyustratsiya va namoyish metodlarning o'rni beqiyosdir. Bizga ma'lumki, illyustratsiya o'rganilayotgan asar mazmuniga doir hodisalar va jarayonlarning ramziy ko'rinishlarini - chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishga imkon beradi. Namoyish (demonstratsiya) metodi orqali esa o'rganilayotgan obyektning harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. 3D adabiyotlari aynan ilyustratsiya va demonstratsiya usulida o'rganuvchilar ongiga yetkazib berilishi, bolalarning obrazli tafakkurlari va tasavvurlarini yanada ko'proq shakllantirish, og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayoniga bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek,

bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta'lim turi sifatida ta'rif berilsa, tarbiyachining kasbiy standarti — maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko'nikmalariga doir asosiy talablar majmuyi ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Maktabgacha yoshdagi davrni kitobsiz, voqeani emotsiyal ifodalashsiz tasavvur qilish qiyin. Aynan shu jarayon bolaning nutqini rivojlantirish va boyitishga katta ta'sir ko'rsatadi. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayoni bolada tasavvurni rivojlantiradi, ona tilining ajoyib namunalarini his qildiradi. Agar bola tanish ertak, she'rni tinglab, qahramonlar bilan birga emotsiyal yaqinlashsa, ularda hayotiy voqealarga shaxsiy munosabat shakllanadi. Natijada, bola badiiy asarlarni tushunishni o'rganadi va shu orqali shaxs sifatida shakllanadi. O'sib ulg'aygan sari bolalar badiiy asarlarni tahlil qilishga ham jalg etiladilar. Masalan, xalq ertaklari orqali bolalarda ona tilining aniqligi va ekspressivligi namoyon bo'ladi. Hikoyalarda bolalar so'zning ixchamligi va aniqligini o'rganadilar. She'rlarda esa, ular nutqning ohangdorligi va ritmini his qiladilar. Biroq, badiiy asar bola tomonidan to'liq qabul qilinib, idrok etilishida yosh xususiyatlariiga mos tanlangan usul muhim o'rinn egallaydi. Shuning uchun bolalarning e'tiborini badiiy asarning ham mazmuniga, ham uning ifodali vositalarga boyligiga qaratish lozim. Shuni unutmaslik kerakki, kitobxonlikka bo'lgan qiziqish faqat bola manfaatlariga, dunyoqarashiga, ma'nnaviy istaklari va ehtiyojlariga mos keladigan muhit yaratilgandagina yuzaga keladi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish jarayonining muvaffaqiyatl bo'lishida pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi yondashuvlarni to'g'ri tanlay olishi, zamonaviy elektron adabiyotlarni yangi avlodini jamlash zarurdir. Chunki badiiy adabiyotlardagi insoniy xislatlar, shaxs va tabiat, jamiyat munosabatlari kabi mavzular bolalarni ma'nnaviy-axloqiy, estetik, hatto, irodaviy jihatdan tarbiyalashga yaqindan ko'mak beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr 2. Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005. — 1136 с 3. Водовозова Е.Н. Умственное и нравственное воспитание детей от первого проявления сознания до школьного возраста. СПб., 1901.-с. 319-322. 4. Сухомлинский В.А. О воспитании. Изд. 2-е, М., Изд-во политической литературы. 1975. - С. 272.









